

BADIIY TARJIMA VA TARJIMON MAHORATI

Abdullayeva Ruqiya Muhammadovna

Yangi asr universiteti

“Mumtoz Sharq filologiyasi”

kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Tarjima sohasidagi ishlarni amalga oshirish uchun tanlangan xorijiy tillardagi til birliklarini puxta o‘rganish lingvomadaniy tahlil jarayonida katta ahamiyatga egadir. Undan tashqari madaniyatlararo farqni idrok etish uchun asl matn tilidagi xalq mentaletini ham tushunish va o‘rganish talab etiladi. Tarjima normalariga muvofiq tarzda leksik, grammatik, stilistik uslublarini o‘z o‘rnida qo‘llay olish tarjima sifatini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: Lingvomadaniyat, aspect, kognitiv, semiotick, aksiologik, transformation, muloqot, madaniyat, normativ.

Abstract .A thorough study of language units in foreign languages selected for translation work is of great importance in the process of linguocultural analysis. In addition, in order to perceive intercultural differences, it is also necessary to understand and study the folk mentality of the original text language. The ability to apply lexical, grammatical, and stylistic methods in accordance with translation norms improves the quality of translation.

Keywords: Linguistic culture, aspect, cognitive, semiotic, axiological, transformation, communication, culture, normative.

Ma’lum bir xalq madaniyatining aynan shu xalq so‘zlashadigan tilda aks etishini tushunamiz. Lingvomadaniyatda xalqning nafaqat bugungi kundagi turmush tarzi, balki asrlar davomida shakllanib kelgan milliy, tarixiy, diniy madaniyati aks etadi. Har bir tildagi folklor janrlar, maqollar, iboralar, shu tilda muloqot qiladigan xalqning asrab- avaylanadigan, eng ko‘p o‘rganiladigan muhim ahamiyatga ega

bo'lgan xalq og'zaki merosi hisoblanadi. Bu sohaning vazifasi til orqali xalqning bugungi kungacha shakllangan madaniyatini o'zida aks ettira olishidir.

Til va madaniyatning ham jamiyatda o'z vazifalari mavjud:

1. **Kognitiv vazifa.** Lingvomadaniyatning bu funksiyasi fanda namoyon bo'ladi. Til madaniy bilimlarning tashuvchisi hisoblanadi. Til vositasida olamni va o'zimizni anglaymiz.
2. **Representativ vazifa.** Til va madaniyat odamlarning ruhiy va moddiy faoliyati davomida erishgan natijalarini mustahkamlashlariga yordam beradi. Predmet va ma'lumotlarni keying avlodlarga yetqazish uchun xizmat qiladi.
3. **Semiotik vazifa.** Boshqacha qilib aytganda belgilar funksiyasi. Umumqabul qilingan fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, til- bu belgilar tizimidir. Bular tarkibiga madaniyatga oid belgilar ham kiradi.
4. **Muloqot vazifasi.** Til – insonlar orasidagi oddiygina muloqot vositasi bo'lib qolmasdan, ular orasida madaniy ma'lumotlar tashuvchi vosita hamdir.
5. **Aksiologik funksiya.** Baholay olish funksiyasi bo'lib, nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini ajratib olishni o'rgatadi.
6. **Normativ funksiya.** Urf- odat va an'viylikka oid bo'lgan axloqiy normalar. Bunga milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar kiradi.

Tarjimada lingvomadaniy aspektlardan to'g'ri foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biz badiiy tarjimada bu yo'nalishning nuqtai nazarini va qanday qilib lingvomadaniyatga oid so'z va fikrlarni to'g'ri shaklda yetqizib berish masalalarini ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Muloqotga kirisha bilish ko'nikmasini shakllantirish. Bu prinsip tarjima bilan shug'ullanadigan kadrlarning turli madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga keladigan holatlardagi real yondashuvga tayyorgarlik darajasini oshirish deganidir. Ya'ni har qanaqangi murakkab vaziyatda tarjima matnini qiyinchiliksiz to'g'ri yoritib berishni ta'minlash kerak.

Birlashtira olish. Tarjimondan turli sohalaridagi boy bilimga ega bo'lishini talab qiladi. Bir vaqtning o'zida ham professional axborot yetqazuvchi vazifasini, ham

akademik ijtimoiy bilim egasi bo'lishini talab qiladigan prinsip.

Tarqoq ma'lumotlardan foydalana olish. Bu prinsip tarjimondan tarjimaga qadar ega bo'lgan turli sohalardagi ma'lumotlaridan aynan tarjima asnosida foydalan olish qobiliyatini rivojlantirish ko'nikmasini nazarda tutadi.

Tarjima sohasidagi mutaxasislarning lingvomadaniy bilimlarini puxta egallashlarini tarjima nazariyasi fanlari orqali shakllantirish kerak va bu bilimlaridan turli janrlardagi materiallarni tarjima qilish jarayonida amaliy foydalanishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishni ustuvor yo'nalishga aylantirish kerak.

Tarjima sohasidagi ishlarni amalga oshirish uchun tanlangan xorijiy tillardagi til birliklarini puxta o'rganish lingvomadaniy tahlil jarayonida katta ahamiyatga egadir. Undan tashqari madaniyatlararo farqni idrok qila olish uchun asl matn tilidagi xalq mentalitetini ham tushunish va o'rganish talab etiladi. Tarjima normalariga muvofiq tarzda leksik, grammatik, stilistik uslublarini o'z o'rnida qullay olish tarjima sifatini yaxshilaydi.

Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimondan nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixini, madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalarga oid bilimlarni, psixologiya sohasini, xalqlar va dinlar tarixini bilishi ham talab etiladi. Tildan universal vosita va etnik madaniyat sifatida foydalanish mumkin. Lekin madaniyatni tilga oid birliklarda semantika shaklida ko'rsata olish uchun yuqorida sanalgan sohalarda yuqori bilimga ega bo'lish muhimdir. Shuning uchun xorijiy tilni puxta o'rganishda albatta shu tilni professional o'rganish fanlari bilan bir qatorda shu tilning metodikasini, madaniyatini, adabiyotini, mamlakatshunosligini, og'zaki va yozma tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarini ham qo'shib o'rgatishga jiddiy ahamiyat berish kerak. Natijada bo'lajak mutaxassis shu xorijiy tilni chet tilida yozilgan manbaalardan qabul qila oladigan va baholaydigan darajaga yetishi, tarixiy va madaniy merosga hurmat va e'tibor bilan yondashishi, ma'lumotlarni ijtimoiy va madaniy nuqtai nazaridan farqlay olishi, badiiy tarjimani amalga oshirishda mantiqiy ketma- ketliklardan foydalana olishni shakllantirishi, asl matndagi mohiyatni buzmasdan tarjimada to'g'ri ochib bera olishi professional darajaga

ko'tariladi.

Badiiy tarjimada lingvomadaniyat aspektlarining yanada chuqurroq va to'liqroq yoritilishida nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini keeling ko'rib chiqamiz:

1. ***Transformatsion metodlardan foydalanish***, ya'ni murakkab va qo'shma gaplarni oddiy sodda gaplarga aylantirib, tarjima orqali uzatish metodi. Bu metodga misol qilib grammatik transformatsiya (bu jarayonda so'zma- so'z tarjima xavfli hisoblanadi), sintaktik transformatsiya (asl matnni ma'no va leksik jihatdan ma'nosi o'zgarmagan holda ekvivalent matnga o'girish), leksik transformatsiyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.
2. ***Matnni tarjimadan oldin tahlil qilish metodi***. Matn tuzilishini, tarjima matnini yetqazib beruvchi auditoriyani, ma'lumot tarkibini, matn janrini, tarjima maqsadini tarjimani amalga oshirmasdan tahlil qila olish.
3. Atoqli otlar, geografik nomlar, millat nomlarining tarjimasini bilish
4. Ingliz tilidagi fe'llar nominalizatsiyasi va ularning shakllarini tarjimasi
5. Siyosiy idiomalar tarjimasi
6. Antonimlar tarjimasidagi o'ziga xos xususiyatlar
7. Qisqartma so'zlar tarjimasi
8. Tarjimadagi siyosiy tuzatishlar tilga oid taktlardan foydalanish

Tarjimada har qanaqangi janrda o'ziga xos murakkabliklar mavjud. Masalan oddiygina yumor va hazil-mutoyibani misol qilib olaylik. Yumor- butun insoniyatga xos bo'lgan milliylikdir. [1, 11) Madaniy **aspekt** yumorning asosi hisoblanadi. Chunki yumor uchun inson yashaydigan jamiyatning ta'siri juda kattadir. Har bir millatning o'z qadriyatlari, an'analari mavjud. Boshqa millatlardan farq qiladigan o'z fikrlash tarzi bor.

Hattoki rangni anglatadigan so'zlarda ham har bir xalqning madaniy an'analari ko'zga tashlanadi. Qizil rangni olib qaraydigan bo'lsak, AQSHda xavf, Fransiyada aristokratizm, Hindistonda hayot va ijob, Yaponiyada g'azab, Xitoyda esa baxt timsolidir. Qiziq tarafi shundaki, ranglarning ramziy timsoli lingvomadaniy nuqtai nazardan bir necha ma'noni anglatishi ham mumkin. Masalan rus tilida sariq

rangning ramziy ma'nosi bir tarafdin quyosh rangidan kelib chiqib, abadiylik timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan kasallikka ishoradir. Shunaqa holatlardan kelib chiqib qaraladigan bo'lsa rang tushunchasi o'zida ijtimoiy- madaniylik bilan birga emotsional va hissiy omillarni ham o'zida aks ettiradi. Bizga ma'lumki, ranglar sovuq va issiq va hattoki qaynoq ranglar guruhiga bo'linadi. Ranglar ko'rinishiga ko'ra ham ba'zi ramziy ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilida ko'k rang alohida rang sifatida emas, qora rangning ochroq ko'rinishi hisoblanadi. Ingliz tilidagi "to be blue in face" va "to be black in face" rus tilida "побелетьотзлости", o'zbek tilida "g'azabdan ko'karib ketish" iboralari orqali ifoda etiladi. Shubhasiz, ranglar har bir xalq madaniyatida his-tuyg'ularni ifodalash vositasi hisoblanadi va badiiy adabiyotda ma'no ta'sirchanligini oshirish maqsadida keng foydalaniladi. Bunday iboralardan foydalanish o'z navbatida o'quvchiga ham kerakli darajada emotsional ta'sir qila olish kuchiga egadir. "Ranglar ishtirokidagi iboralardan foydalanish muallif dunyoqarashidan kelib chiqib, badiiy adabiyotda o'sha xalq milliy madaniyati haqida tasavvur hosil bo'lishiga omil yaratadi" [2, 146]. Badiiy adabiyotda rang bilan bog'liq iboralardan foydalanish muallif maqsadiga kirmaydi. Aksincha, muallif ijodiy fikrlarining ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladigan, tildagi nozikliklarni o'zida aks ettiradigan vosita hisoblanadi. Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning vazifasi muallif maqsadini tarjima qilinadigan tilda to'laligicha yetqazib berishdir. Badiiy adabiyotda ranglardan qahramon ismlarini atashda ham keng foydalaniladi. Qahramon xulq- atvoriga qarab ranglardan foydalanib, ismlar beriladi. Amerikalik yozuvchi, Joef Xellerning "Catch 22" asarida kapitan Blek (Captain Black) bor. Bu asarning rus tilidagi tarjimasida (tarjimon A. Kistyakovskiy) tarjimon ingliz tilidagi qora rangning tund, yovuz, badbashara, xunuk ma'nolaridan kelib chiqqan holda asardagi salbiy tomonlarni o'zida mujassam etgan bu personajni КапитанГнус deb ataydi. Гнус rus tilida asl matndagi ma'nolarni ortig'i bilan ochib bera oladi. Asl matndagi Black ismi tarjimada shu holicha olinganda, rusiyzabon o'quvchi uchun shunchaki personaj xarakterini ifodalovchi va hech qanaqangi ma'noga ega bo'lmagan atoqli ot

hisoblangan bo'lardi. Ingliz tilidagi bo'yoqdorlik rus tilida o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lardi. Vaholanki muallif bunday ismlardan aynan qo'shimcha ma'lumot berish va emotsional bo'yoqdorlikni kuchaytirish maqsadida foydalanadi. Shuning uchun ham ranglardan foydalanib tanlangan atoqli otlar tarjimai tarjimon amalga noshirishi kerak bo'lgan jiddiy masala hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lingvomadaniyatga oid bilim va ko'nikmalarsiz tarjimon natijaga erisha olmaydi. Bu tabiiy. Lekin biz e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan asosiy narsa bu- malakali mutaxassis- tarjimonlarni tayyorlashdir. Chunki madaniyat tushunchasi jamiyat rivojlanib borgan sari, o'zgarib boraveradi. Demakki lingvomadaniyat tushunchasi ham yangilanib boraveradi. Bu o'z o'rnida boshqa sohalar kabi badiiy adabiyotga ta'sir qiladi. Badiiy adabiyot borki, albatta uni tarjima qilishga talab va ehtiyoj bo'ladi. Shunday ekan tarjima maktablarimizni kelajakda munosib o'rnini topishini ta'minlashimiz uchun tarjimonlarni qo'llab- quvvatlashimiz, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni puxta egallashlariga shart- sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

Shu o'rinda buyuk alloma, faylasuf va shoir bobokalonimiz Navoiy hazratlarining ijodlaridan mavzumizga oid bo'lgan so'z haqidagi to'rt misrani so'ngso'z o'rnida keltirib o'tishni ma'qul deb bildik.

So'z durki, nishon berur o'likka jondin

So'z durki, berur jonga xabar jonondin

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кулнич М. А. Лингвокультурология юмора. Самара- 1999
2. Белякова С. М. Цветовая картина мира Бунина. Воронеж: Полиграф- 1999
3. Тимко Н.В. Лингвокультурологические аспекты перевода цветообозначений. Курск- 2012
4. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТҲ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.

5. Jo‘Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
6. RAHIMJONOV, M. (2025). ISLOM DINIDA AYOLLARNING ILM OLISHLARIGA BO ‘LGAN MUNOSABAT. «*ACTA NUUz*», 1(1.12. 1), 131-133.
7. TURSUNALIYEVA, M. (2025). OGACHIYNING “ZUBDAT UT-TAVORIX” ASARIDA HAMD MATNIDAGI SO‘ZLAR JILVASI. «*ACTA NUUz*», 1(1.7), 310-312.
8. Fatilloyev, M. (2025). YOQUT AL-HAMAVIY VA “MU’JAMU-L-UDABO” ASARINING DUNYO BO ‘YLAB O ‘RGANILISHI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(3), 510-514.
9. Musaev, I. (2025). SAIDBEK HASANOV’S CREATIVE APPROACH TO THE TEXT OF ‘BOBURNAME’. *Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy*, 3(1), 94-99.
10. TILLARNI, T. Y. S. X. O „RGATISH. *ORIENTAL UNIVERSITETI FILOLOGIYA FAKULTETI*, 575.
11. Жўраева, М. (2022). «Ал-фавоиду-з-зиёиййа» ва «Кофия» асарларида феъл туркумининг ёритилиш принциплари. *Востоковедение*, 14(2), 58-65.
12. Rahimjonov, M. (2026). THE ROLE OF WESTERN SCHOLARS IN STUDYING THE LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS AND THINKERS. *Journal of Social and Theological Studies*, 1(1), 5-13.
13. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGACHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA‘T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
14. Mamajanova, V. Arab Tilini O ‘qitishda Yozma Nutq Ko ‘nikmasini Shakllantirishning Metodik Asoslari Va Zamonaviy Yondashuvlar. *Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali*, 676270.

15. Жураева, М. А. (2013). Некоторые особенности склонения имен в грамматическом комментарии Абдурахмана Джамии «Шарх мулла». *Вестник Челябинского государственного университета*, (23 (314)), 121-125.
16. RAXIMJONOV, M., & Samadova, G. (2025). MIRZA ULUGBEK PATRON OF LITERATURE. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 110-117.
17. TURSUNALIYEVA, M. (2025). OGHIYNING “ZUBDAT UT-TAVORIX” ASARIDA HAMD MATNIDAGI SO’ZLAR JILVASI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.7), 310-312.
18. Viktoriya, M. (2025). FE’L MAYLLARINING O ‘ZGARISHIGA SABAB BO ‘LUVCHI YUKLAMALAR TAHLILI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(3), 560-563.
19. Qo‘chqarovich, K. U. (2026). REY BREDBERINING “ERTAGA QIYOMAT” HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY PSIXOLOGIZM. “*Alfraganus*” *xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(4), 11-21.
20. Qo‘chqarovich, K. U. (2025, October). REY BREDBERI VA HOJIAKBAR SHAYXOV IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 461-464).
21. Azimboyevna, Y. S. (2026). Edgar Allan Poe va uning adabiy uslubining zamonaviy amerika ilmiy-fantastik adabiyotiga ta’siri. *Alfraganus*” *Xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(6), 56-66.
22. Azimboyevna, Y. S. (2025). Literary Interpretation Of Motifs In Ray Bradbury’s Works. *International Journal Of Advanced Research In Education, Technology And Management*, 4(3), 43-51.
23. Vebsayt: <https://hozir.org/tarjima-nazariyasi.html>